

METHODS OF EFFECTIVE USE OF MODELS IN TRANSLATION OF ENGLISH TEXTS INTO RUSSIAN AND UZBEK.

Andijan Institute of Mechanical Engineering
Senior Lecturer of the Department of Uzbek Language and Literature **FI Karimova**,
3rd year student of MEM **Muhammadjanov A.**

Keywords: Translation theory, models, translation mechanism, original structures, transformations, syntactic structures, equivalent, adequate, Transformational-semantic model.

INGLIZ TILIDAGI MATNLARNI RUS VA OZBEK TILLARIGA TARJIMA QILISHDA MODELLARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI.

Andijon Mashinasozlik Instituti
Ozbek tili va adadiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi **F.I.Karimova**, MEM 3 kurs talabasi Muhammadjonov A.

Kalit sozlar : Tarjima nazaryasi, modellar, tarjima mexanizmi, asliyat strukturalari, transformatsiyalar, sintaktik strukturalar, ekvivalent ,adekvat, Transformatsion-semantik model.

Tarjimada uni amalga oshiruvchi tushunchalar o'rtasidagi aloqadorlikni teran tushunish va tarjima mexanizmlarini maxorat bilan qo'llay olish tarjima sifatini ta'minlashda muxim ahamiyatga egadir. Tarjima nazaryasi va amaliyotiga bag'ishlangan qo'llanmalarga tarjima mexanizmlari sifatida bir necha modellar tavsiya qilingan. Model deb tarjima jarayonida tarjimon amalga oshiradigan bir qancha firqiy va amaliy xarakterlar majmui anglashiladi. Tarjimashunos olimlar modellarni ikki o'zaro bog'liq aspektda tushuntiradilar. Birinchisi tavsiya etilayotgan modelni tatbiq etish afzalliklari va qaysi xolatlarda foyda berishini ko'rsatish bo'lsa, ikkinchisi, model asosida tarjima amaliyoti tiplarini aniqlashtirishdan ibratdir.

Modelni tanlash asliyatning xususiyatlari va tarjima tilining shunga binoan amalda bo'lgan imkoniyatlariga bog'liq. Albatta model shartli tushuncha, u tarjimadan matn yaratish jarayonida majburiylikni talab qilmaydi. Tarjimon ularning qarishiq shaklidan xam ijodiy foydalanishi mumkin. Zero modellar o'z qamrovida cheklangan bo'lgani uchun xam matn tarjimasini yuqori darajada ekvivalent yoki adekvat bo'lishiga kafolat bermaydi. Modellarning vazifasi tarjimon maqsadi va yondashuvi xamda tarjima turi talab qilgan shart-sharoitdan kelib chiqib, tarjima jarayonini to'g'ri taxlil etish, umumiy yo'nalishni ko'rsatish va asliyatdan tarjimaga izchil o'tishga yordam berishdan iborat. Tarjima modellari tarjima mexanizmining normal ishlashini taminlashga qaratilgan.

Xozirgacha olimlar tomonidan tarjima jarayoni modellarining turli ko'rinishlari ishlab chiqildi. Ularning zamonaviy tarjima amaliyotida eng mashxurlari sifatida situativ (vaziyat yoki xolat), transformatsion-semantik va kommunikativ kabi modellarini ko'rsatish mumkin. Xar biri o'zining muayyan tarafdorlariga xam va shu bilan birga, jiddiy qarshi bo'lgan nazariyatchilariga xam ega. Quyida ushbu modellarning mohiyati bilan tanishtirib o'tamiz.

Transformatsion-semantik model asliyat tilidagi matnni tarjima matniga aylantirishda asliyat birliklari ma'nolarini berishni markaziy o'ringa qo'yadi. Bu o'z navbatida, asliyat va tarjima leksik birliklari xamda sintaktik tuzilishlari orasida doimiy aloqaning mavjud bo'lishini taqazo etiladi. Tarjima jarayoni ikki matn o'rtasida ekvivalent muvofiqlikni taminlovchi transformatsiyalar- tadbirlar orqali tashkil etiladi va matn asliyat tilidan (AT) tarjima tili (TT) birliklariga o'tkaziladi.

Tarjimon asliyatni obdon o'qib, muayyan tasavvur xosil qilgach, miyasida bir qancha lisoniy tabdillarni

amalgam oshiradi va tarjimini "pishitadi". Tabdil "xujayra darajasidagi" sintaktik strukturalar negizida amalga oshiriladi. Ushbu model tarafdorlarining fikricha, xujayra darajasidagi sintaktik qurilmalar barcha tillarda bir-biriga muvofiq keladi va mantiqiy-sintaktik bog'lanishlar, leksik tarkiblarda umumiylik ko'zga tashlanadi. Boshqacha aytganda asliyat matni ibtidoiy (yoki yadroviy deyish mumkin) strukturalar majmui sifatida qaraladi va ular tarjima tilida muqobil va umumiy ibtidoga ega bo'lgan shakllar bilan almashtiriladi yoki, nazariya tili bilan aytganda, tarjima tiliga asliyat strukturalari transformatsiya, ya'ni tabdil etiladi. Ushbu modelda tarjima uch bosqichda keladi. Birinchi bosqich-taxlil bosqichi bo'lib, sintaktik tuzilmalar asliyat tili (AT) doirasida soddalashtirilgan xolda tabdil qilinadi, ya'ni asliyat tuzilmalari sodda va oson tushuniladigan oddiy shakllarga o'tkaziladi. Buning natijasida tuzilmaning sof ko'rinishi yuzaga kelib, tarjima tilida shunga o'xshash yoki juda yaqin qurilmani tanlash oson kechadi. (Masalan, she is a good dancer - She dances well.)

Taxlil bosqichida aloxida so'zlar xam soddalashtirilishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi student so'zi o'zbek tilida o'rganuvchi degan ma'noni anglatadi. Taxlil bosqichida uning asliyatda ko'zlagan ma'nosiga qarab quyidagi soddalashtirilgan tabdilini amalga oshirish mumkin. a) student - bu oliy ta'lim muassasasida o'qiyatgan shaxs (maktab o'quvchisidan farqli); b) o'qituvchi emas balki o'rganuvchi; d) ko'plik emas, balki birlikda keltirilgan grammatik tushuncha (talabalar emas). shundan so'ng ularning orasidan asliyat matnida ko'zda tutilgan ma'noda ekvivalent yoki adekvat muqobil ma'noli so'z tanlanadi.

Transformatsion-semantik modelning ikkinchi bosqichi "o'tish" bosqichi deb nomlanib, unda oldingi bosqichda soddalashtirilgan sintaktik qurilmalar va leksik birliklar yordamida tarjima tilidagi semantik komponentlar va yadroviy qurilmalar orasida ekvivalent birliklar izlanadi. Masalan, she is a good singer- u yaxshi qo'shiqchi jumlasida uning professional emasligi taxlil bosqichida aniqlangan bo'lsa, unda: "u yaxshi kuylaydi" iborasi adekvat tarjima bo'lishi mumkin.

Transformatsion-semantik modelning uchinchi bosqichi "qayta tuzish" deyiladi. Bunda tarjima tilida topilgan yadroviy darajadagi sodda ekvivalent birliklarga suyanib asliyat grammatik strukturasi va birliklarga mos ravishda oxirgi saykal berish jarayoni amalga oshiriladi.

V. Komissarov transformatsion-semantik modelning uch bosqichini quyidagi; " Immediate expulsion of flunked student was felt to be inadvisable" misoli vositasida qay tarzda rus tiliga "Считалось нецелесообразным немедленно исключать студентов провалившихся на экзаменах" deb tarjima qilinganini shunday sharxlaydi:

1-bosqichda inglizcha jumlaning o'zak tuzilmasi aniqlanadi.

1. Student flunked (examinations)
2. somebody expels students.
3. The action(2)is immediate.
4. The action (2+3)is inadvisable.
5. someone felt something.
6. (1) is the reason for (2).
7. (4) is the object of (5).

Shu jarayonda leksik birliklarning ma'nolari xam taxlil qilinadi: Student- one who attends a school especially a higher institution of learning, flunk - to fail at an examination colloquial + style, etc.

2- bosqichda inglizcha matndagi o'zak tuzilma va semantik soddalashtirilgan so'zlar rus tilidagi muqobil tuzilma va so'zlar bilan almashtiriladi:

1. Студент (или учащиеся) не сдали экзаменов
2. Кто-то исключает студентов
3. Это действие (2) осуществляется немедленно
4. Действия (2+3) является нецелесообразным
5. Некто чувствовал
6. (1) является причиной(2)
7. (4) является объектом(5)

O'zak tuzilmalar ular o'rtasidagi aloqadorlikga qarab birlashtirilishi natijasida ikkinchi bosqichning nihoyasida quyidagi rus iborasi paydo bo'lishi mumkin: "Некто чувствовал что исключить студентов учащихся за то

что они не сдали экзаменов и делать это немедленно является нецелесообразным."

3-bosqichda xosil bo'lgan ruscha jumla rus tilidagi normalar va asliyat birliklari ma'nolariga to'g'ri keladigan struktura va leksik birlikga o'tkaziladi:

1. Noaniq shaxs haqida gap kelayotganligi uchun gap shaxsi umumlashtiriladi/
2. "Xis qilish" fe'li "xisoblash" fe'liga almashtiriladi chunki gap xissiy munosabatlar ustida emas, ratsional munosabatlar ustida ketmoqda.
3. Yo'yiq predikativ birliklar ot va fe'l guruxlariga singdiriladi: "считалось нецелесообразным" " студенты не сдавшие экзаменов" va "немедленно исключить"
4. So'zlar tartibi o'zgartiriladi.
5. So'zning kerakli shakli tanlanadi: agar gap doimiy ro'y berayotgan xolat haqida bo'lsa "исключить" emas balki "исключать" deb yozish.
6. Ortiqcha variantlar olib tashlanadi: "учащиеся" olib tashlanib "студенты" qoldiriladi.
7. "Провалившихся на экзаменах" so'zlarining konnotativ ma'nolari aniqlashtiriladi.

Natijada quyidagi tarjima varianti xosil bo'ladi: "Считалось нецелесообразным немедленно исключать студентов провалившихся на экзаменах".

Tarjimaning situativ (xolatiy) modeli til birliklarining asos-mazmuni denotatlar deb atalmish voqealikni turli ko'rinishlari voqea- xodisalari turli predmetlari bilan bog'liq ravishda paydo bo'ladi degan qarashdan shakllangan. Model nazariyotchilarining fikricha denotatlar butun insoniyat uchun bir xil va umumiydir. Til vositasida bayon etiladigan real voqelikning xar bir xolati turli denotatlarning matndagi birikuvidir. Barcha axborot (nutq bo'laklari) albatta qandaydir xolatni aks ettiradi ya'ni denotatlarning bir-biriga bog'liq va o'zaro munosabatlari ifodasini o'z ichiga olgan bo'ladi. Odamlar turli tillarda so'zlashsalar xam borliq mohiyatini bir xil tushuniladilar real voqelikning barcha ko'rinishlari haqida bir xil fikr qiladilar. Demak borliq va voqelik in'ikosi inson ongida yagona chizgilarga ega bo'lib uning matndagi bayonigina tilga bog'liq. Shunday ekan bir tilda yaratilgan xar qanday matnni ikkinchi tilda muvofiq tarzda qayta tiklash mumkin.

Situativ modelning sxemasi quydagicha: Avvalo asliyat tili birliklari vositasida berilgan voqelik xolati yoki vaziyati diqqat bilan taxlil qilinadi. Shundan so'ng xolat tarjima qilinadi va voqelik xolatining asliyatdan tarjimaga ko'chishi ta'minlanadi. Tarjimada aks etgan talqin asliyatda bayon etilayotgan voqelik mazmun - mohiyatini to'liq qamrab olganiga ishonch xosil qilingandan so'ng tarjimon unga tegishli sayqal berishni boshlaydi: asliyatdagi til birliklari tarjima tili birliklaridan to'g'ri keladigani bilan almashtiriladi. Shart shuki denotatlar ya'ni real voqelik (xolat) mohiyati talqini tarjimaga to'g'ri ko'chishi darko'r.

Situativ model tarjima adakvatligini ta'minlashda muxim axamiyat kasb etadi. Uning afzal tomonlari ekvivalentsiz leksikani o'girishda tarjima variantini tanlashda til birliklari chegarasi imkon bermagan xolatlarda va bayon etilayotgan xolatdan kelib chiqib tarjimoni to'g'ri amakga oshirishda yaqqol ko'rinadi. Masalan xar qanday xolat xam bayon jarayonida o'zining batafsil ifodasini topmasligi mumkin. Tarjimon mazkur xolatni berish uchun uni diqqat bilan o'rganishga majbur bo'ladi. Ingliz tilidagi "Her aunt must be made to tell them about it" jumlasida umumiy ma'no tushunarli bo'lsada uni faqat til birliklari va leksik tushunchalarga asoslanib tarjima qilish no'noqlik bo'ladi. Avvalo aunt xolami, ammami, ekanligini aniqlash, "must be made" "qildirish zarurligi" majburlashmi, iltimosmi, ko'ndirishmi, undashmi, ekanligi faqat ushbu xarakatni yuzaga keltirgan xolarni o'rganish orqali oydinlashishi mumkin.

Real xolatni aniqlash tarjimondan turli adabiy manbalardan tarixiy, geografik, ijtimoiy-maishiy xayot ikirchikirlaridan yaxshi xabardor bo'lishni talab qiladi. Tarjimon bir paytning o'zida adabiyotshunos, tarixchi, faylasuf, dinshunos psixolog xam bo'lishi lozim. Shundagina asliyat matnidagi xolatni o'rganish va adekvat tarjima qilish ishlari osonlashadi. Bilimlar yetarli bo'lmagan taqdirda turli izoxli lug'atlardan mavjud ko'rsatkichlar va malumotlardan foydalanish asliyat tilidagi xolatni xaqqoniy baxolash va tarjima variantni to'g'ri tanlashga yordam beradi.

Tarjimaning kommunikativ modeli X11 asrda tarjimachilik soxasida eng etborga sazovor bo'lgan modeldir. uning yuzaga kelishida badiiy tarjima nazariyotchilarining xam o'ziga xos xissasi bor. Malumki badiiy tarjima soxasi asosan adabiyotshunoslar, ijodkor shoir va adiblar tomonidan rivojlantirilib uning tamoillari uzoq yillar tarjimashunos- lingvist olimlar bilan kechgan baxslarda shakllanadi. Adabiyotshunoslar tarjimada faqat

tilshunoslik me'yorini emas, balki madaniyatlararo o'zaro muloqot va tasvir omillarini xisobga olish zarurligi masalalarini muntazam o'rtaqa tashlab keladilar. Jaxon tarjimashunosligida I.Leviy. A. Popovich bu yo'nalishda yirik tadqiqotlarni amalga oshirdilar.

Adabiyotlar.

1. Tarjimashunoslikga doir tadqiqotlar/ masul muxarrir: J.SHaripov.T., 1975.
2. Ingliz tiligrammatikasi. M. Gopporov.Robiya Qosimova.-T..2011.
3. A.Hornby. Oxford Student`s Dictionary of current English.. M. 1984. G'afurov.I. 4.Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish. T.,2008
4. SHaripov J. Badiiy tarjimalar va moxir tarjimonlar. T., 1972